

“DALILLAR VA ISBOT QILISHNING O‘ZIGA XOSLIKHLARI VA DALILLARGA BAHO BERISHDA ICHKI ISHONCH”

Mualliflar: Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasi o‘qituvchisi

Faxxotova Dilzoda Farxot qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, dalillar va isbot qilish usullari, dalillarni to‘plash va baholashda vakolatli organlar va mansabdor shaxslar, dalillarning tasniflanishi, dalillarni baholashda ichki ishonchning asosliligi va dalillarga baho beruvchilarning huquqiy ongga tayanishi haqidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lib xulosa qilib, O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligining dalillar va isbot qilishga oid normalari solishtirilgan.

Kalit so‘zlar: Dalil, isbot, prokuror, sud, surishtiruvchi, tergovchi, bayonnomma, protsess, dastlabki, hosila, ayblovchi, oqllovchi, kinotasvir, videotasvir, hodisa joyi, kuzatuv, barmoq izlari.

Kirish. Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga¹ muvofiq, ijtimoiy xavfli qilmishning ro‘y bergan yoki bermaganligini shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdor, aybsiz ekikanligi va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud

¹ . <http://lex.uz//docs/-111460> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi

tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlashlariga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy bo‘lgan ma’lumotlarjinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi. Jinoyat protsessida dalil markaziy ahamiyatga egadir. Dalillar haqidagi haqiqiy ma’lumotlari va ularning birlashuvi dalilning vujudga kelishiga asos bo‘ladi.

Dalillar quyidagicha tasniflanadi: Dastlabki va hosila dalillar, ayblovchi va oqlovchi dalillar, to‘g‘ri va egri dalillar, shaxsiy va ashyoviy dalillar.

Tergov va sud bayonnomalari ham dalil sifatida e’tirof etiladi. Shu boisdan ham ish bo‘yicha tergovchi va sud, bayonnomalar mazmunini to‘g‘ri va haqiqiy bo‘lishi uchun harakat qilishi lozim. Bayonnomani sifatli dalil sifatida qo‘llash uchun u mazmunli va savodli tarzda yozilgan bo‘lishi kerak. Protsess jarayonida bu ma’suliyatli vazifa surishtiruvchi va tergovchiga, sud jarayonida esa sud kotibiga yuklatiltiladi. Dalillarni dalil sifatida e’tirof etish va ish bo‘yicha haqiqatdan ham mana shu dalil orqali adolatli hukm chiqarish mumkin deb hisoblanishi uchun dalillar faqatgina qonunchilikda belgilangan manbalardan olingan bo‘lishi lozim.

Dalil manbalari quyidagilardan iborat: Guvoh, jabrlanuvchi, gumon, qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ko‘rsatmalari, ashyoviy dalillar, ekspertning xulosasi, ovozli yozuvlar, video yozuvlar, kinotasvir va fotosu’rat, tergov va sud harakatlari bayonnomalari va boshqa hujjatlar.

Isbot qilish, bu jinoyat ishi subyektlarining jinoyat-protsessual qonunchilikka asoslangan holda, muayyan jinoyat ishiga taalluqli bo‘lgan har qanday ma’lumotlarni protsessual tarzda to‘plash, ularni yanada mustahkamlash va tekshirish, baho berish, shu bilan birgalikda davlat nomidan bu dalillarning haqiqatdan ham mavjudligini tasdiqlash faoliyati tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida² isbotlash predmeti tarkibiga quyidagi isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar kiritilgan: Jinoyat obyekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va

² . <http://lex.uz//docs/-111460> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi

miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar, sodir etilgan jinoyatning vaqtisi, joyi, usuli va jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlar, qilmish va ularning ijtimoiy xavfli oqibatlari o'rtaсидagi sababiy bog'lanish.

Yuqoridagi isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning barchasi isbot qilish doirasidagi yetarli dalillarning asosiy birliklari hisoblanadi.

Jinoyat protsessida dalil va isbotlashlarsiz jinoyatni ochish, ayblanuvchini aniqlash jinoyatchiga jazo tayinlash aslo mumkin emas. Dalillar tergov va sud harakatlari o'tkazishdan tashqari davlat organlariga va boshqa organlarga shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga topshiriq va so'rovlar yuborish yo'llari orqali surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy qism.

Dunyo mamlakatlari bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchiligi anchagina rivojlangan davlatlaridan biri bu, Germaniya Federativ Respublikasi hisoblanadi. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi³ jinoyat ishlari bo'yicha protsessual jarayonlarni tartibga soladi va dalillar va isbot qilish masalalarini eng muhim jihat sifatida ko'rib chiqadi. Dalillar va isbot qilish protsessual harakatlarning markaziy elementlaridan biri bo'lib, dalillar va isbot qilishda quyidagi asosiy prinsiplar amal qiladi:

Dalillarni yig'ish va tahlil qilish: Germaniyada jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni yig'ish qonuniy va ob'ektiv tarzda amalga oshiriladi. Dalillarni yig'ish, asosan prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Dalillar turli shakllarga ega bo'lishi mumkin: guvohlarning ko'rsatmalari, material dalillar, hujjatlar, ekspertiza xulosalari va boshqalar.

³ German Code of Criminal Procedure (Strafprozeßordnung – StPO)

https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html

Dalillarni taqdim etish: Prokuror va himoya tomonlari sudga ish bo'yicha dalillarni taqdim etish huquqiga ega. Himoya tomonining asosiy ishi, dalillarni inkor etish yoki ularning ishonchlilagini shubha ostiga qo'yishdan iborat.

Dalillarni baholash: Germaniya jinoyat protsessual kodeksida dalillarni erkin baholash prinsipi mavjud. Bundan ko'rinib tuiribdiki, sud barcha taqdim etilgan dalillarni o'zining ishonchiga binoan, baholaydi va natijada faqat o'z ichki sezgisiga asoslanib qaror chiqaradi. Sud, har bir dalilni xolis va ob'ektiv o'rganishga va tahlil qilishga majburdir.

Isbotlash majburiyati: Jinoyat ishi bo'yicha jinoyatni isbotlash majburiyati asosan prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Prokuror jinoyatni isbotlash uchun yetarli bo'lган barcha dalillarni taqdim etishi lozim. Shu bilan birgalikda, ayblanuvchi taraf o'zining aybsizligini isbotlash huquqiga ega emas, lekin o'zining aybsizligini ko'rsatadigan dalillarni taqdim etish huquqiga ega.

Dalillarni inkor etish: Sudda dalillarni inkor etish yoki ularning haqiqatligini shubha ostiga qo'yish uchun himoya tomoni dalillarga e'tiroz bildirishi mumkin. Bu ayniqsa, guvohlarning ko'rsatmalari yoki ekspertiza natijalariga to'g'ridan- to'g'ri qarshi chiqish bo'lishi mumkin.

Isbotning darajasi: Germaniya jinoyat protsessida sud jinoyat isbotlanishini shubhasiz darajada talab qiladi. Ayblanuvchi, jinoyat sodir etilganiga ishonch hosil qilinishi kerak. Agar jinoyat shubhali yoki ayblov dalillari yetarli bo'lmasa, ayblov sudga o'tmasligi kerakligini anglatadi.

Dalillarni taqdim etish va inkor etish huquqi:

Taqdim etish huquqi: Sudda barcha tomonlar, prokuror, himoya tomoni va jabrlanuvchi, o'z dalillarini taqdim etish huquqiga ega. Shuningdek, har bir tomon sud jarayonida o'z dalillarini, guvohlarini kiritishi va ular bilan jinoyat ishi bo'yicha so'rovlari o'tkazishi mumkin.

Inkor etish huquqi: Ayblanuvchi o'ziga qarshi bo'lган har qanday dalillarni inkor etish huquqiga ega. Bunda ayblanuvchi o'z pozitsiyasini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etishi va sudda o'z pozitsiyasini ko'rsatishi mumkin.

Germaniya jinoyat protsessual kodeksi jinoyat ishini isbotlashda va adolatni ta'minlashga juda katta e'tibor qaratadi. Bu jarayonni shaffof vaadolatli qilish uchun barcha taraflarning o'zaro teng huquqlarga ega bo'lishi va dalillarning haqiqatligini tekshirish uchun sudga erkin baholash kabi imkoniyati beriladi.

Germaniya protsessual kodeksiga⁴ muvofiq, dalillar quyidagicha turlarga bo'linadi: shaxsiy guvohlik, hujjatlar, jismoniy dalillar, texnik yoki ilmiy dalillar, video va audio materilallar, o'zingizga nisbatan dalillar.

Germaniyada dalillarni to'plash usullari:

Kuzatuv va tekshiruv usuli: Politsiya va tergovchilar jinoyat joyida kuzatuvalar o'tkazib, tegishli dalillarni (masalan, barmoq izlari, fotodokumentatsiya, videotasvirlar) to'playdilar.

So'rov va so'roq: Tergovchilarga shaxslar va guvohlarni so'roq qilish huquqi berilgan. Bu usul bilan voqealar, xatti-harakatlar va motivlar aniqlanadi.

Hujjatlarni tekshirish: Jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar, yozuvlar, elektron ma'lumotlar (masalan, elektron pochta, mobil telefonlar) tergov jarayoni davomida tekshiriladi va dalil sifatida qo'llanilishi mumkin.

Texnik vositalardan foydalanish: Politsiya va tergovchilarga telefonni tinglash, elektron kuzatuv, kompyuter tizimlariga kirish kabi usullar yordamida dalillarni to'plash imkoniyati berilgan.

Germaniyada jinoyatlarni isbot qilishda himoyachi faqatgina o'z mijozining manfaatlarini himoya qilmaydi, balki jinoyat protsessida jinoyatni tushunishda va isbotlashda ham yordam beradi. Germaniyada jinoyatlarni isbotlashda jiddiy yuridik tizim, dalillarning aniq va ishonchli bo'lishi, texnologik yordam va ekspertiza ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

⁴ German Code of Criminal Procedure (Strafprozeßordnung – StPO)

https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html

O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligidagi jinoyat ishiga taalluqli bo‘lgan dalillarni to‘plash va isbot qilishga doir moddalarni o‘rganish orqali quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Germaniyada jinoyat ishi bo‘yicha sudga raislik etuvchi sudya dalillarga o‘z ichki sezgisiga tayangan holda baho beradi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 95-moddasiga⁵ ko‘ra, dalillarni baholashda nafaqat sudya balki, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ham qonunga va huquqiy ongga amal qilib o‘z ichki ishonchlariga tayanib ish ko‘radi. Shuningdek, sudya har qanday dalilni eng avvalo qonuniylik va adolatga tayangan holda o‘rganib chiqadi va hukm chiqaradi.

Germaniyada dalillarni to‘plash va isbot qilishda prokuror vakolatlidir. O‘zbekistonda esa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud vakolatli hisoblanadi. Demak, O‘zbekistonda dalillarni to‘plashda vakolatli bo‘lganlar doirasi kengroq. Germaniyada ayblanuvchi taraf o‘zining aybsizligini isbotlash huquqiga ega emas, lekin shunisi ahamiyatli, agarda ayblanuvchi yoki uning vakilida ya’ni himoyachida ayblanuvchini aybsizligiga doir qandaydir isbotlovchi dalil mavjud bo‘lsa, ayblanuvchi o‘z dalillarini sudga taqdim etgan holatdagina o‘zini himoya qilishi mumkin.

O‘zbekiston qonunchiligida, protsess jarayonining barqarorligini yanada ta’minalashda tergov va sud jarayoni bayonnomasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bayonnomma nafaqat jinoyat ishining asl mazmunini balki, jinoyat protsessi ishtirokchilarining ish bo‘yicha bayon etgan so‘zlaridan iborat, yagona dalil hamdir. Har qanday dalil haqiqiy bo‘lmasligi mumkin. Lekin tergovchi va sud kotibi tomonidan to‘liq va mazmunan adolatli tarzda yozilgan bayonnomma haqiqiy deb e’tirof etiladi.

⁵ <http://lex.uz//docs/-111460> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. <http://lex.uz//docs/-111460> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi
2. German Code of Criminal Procedure (Strafprozeßordnung – StPO)
https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stpo/englisch_stpo.html
3. Tuxtasheva.U.A, Pulatov.B Jinoyat-protsessual huquqi(yuridik texnikumlar uchun darslik) Toshkent-2021